

**JISMONIY SHAXSLAR UCHUN KARTA HISOBINI OCHISH, XALQARO BANK
KARTASINI CHIQARISH VA UNGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA
OMMAVIY OFERTA (shartnoma)**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) “Garant bank” AJ (keyingi o'rinlarda – Bank) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 370-moddalariga muvofiq, jismoniy shaxslar bilan karta hisobvarag'ini ochish, xalqaro plastik kartalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish uchun yo'naltirilgan rasmiy ommaviy taklif hisoblanadi.

Ushbu Shartnomaning shartlarini Mijoz tomonidan aksept qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Aksept Mijoz tomonidan mazkur Shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'g'ri rasmiylashtirilgan Arizani to'ldirish va topshirish orqali, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron hujjat aylanishi tizimlari orqali amalga oshiriladi.

1.2. Ushbu Shartnoma Mijoz tomonidan akseptlangan (tasdiqlangan) paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi. Bu harakatlar Mijozning ushbu Shartnomada belgilangan shartlar asosida Shartnoma tuzishga roziligini tasdiqlaydi.

1.3. Shartnomaning joriy versiyasi Bankning <https://www.garantbank.uz> saytida joylashtirilgan.

1.4. Asosiy atama va ta'riflar:

Abonentlik to'lovi - Bankning ma'lum davr mobaynida Mijozga tegishli xizmatlarni ko'rsatishga doimiy “shaylik holati” uchun belgilangan miqdorda to'lanadigan haqi. Abonentlik to'lovining miqdori bank Tariflarida ko'rsatiladi;

Bank – “Garant Bank” AJ va uning alohida tarkibiy bo'linmalari;

Bankomat - Mijozga o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tartibida naqd pul olish va bank kartasi bilan boshqa amaliyotlarini amalga oshirish imkonini beruvchi hamda bajarilgan amaliyotlar bo'yicha slip hujjat shakllantiruvchi qurilma;

BXO – Bankning Amaliyot boshqarmasi/bank xizmatlari ofislari;

CVV-2 - internet orqali tranzaksiyalarni bajarish uchun XBKning orqa tomoniga joylashtirilgan uch xonali kod;

Drop karta — karta egasi tomonidan o'z nomiga ochilgan, ammo uchinchi shaxs manfaatida yoki noqonuniy moliyaviy amaliyotlarda foydalanilayotgan (yoki foydalanilishi mumkin bo'lgan) bank kartasi;

Elektron bildirishnoma - Bank tomonidan internet va/yoki mobil aloqa vositalari orqali mijozning mobil telefonlariga (SMS, PUSH) hamda elektron pochta sifatida yuboriladigan standart shakldagi qisqa xabarlar;

Karta hisobvarag'i - pul mablag'larini Bank kartasi orqali tasarruf etish mumkin bo'lgan Mijozning bank hisobvarag'i;

Maxfiy so'z - Mijoz tomonidan o'rnatiladigan, u tizimga kirish uchun identifikator sifatida foydalanadigan belgilarning maxfiy ketma-ketligi;

Masofaviy bank xizmati (keyingi o'rinlarda - MBX) - Mijoz tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanib, masofadan uzatiladigan (qabul qilinadigan) elektron ko'rsatmalar asosida bank tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar majmuasi;

Mijoz - Muomala layoqatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs, Bank tomonidan emissiya qilingan bank kartasining egasi;

PIN-kod - XBK yordamida tranzaksiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan shaxsiy identifikatsiya raqami;

Sug'urta depoziti - Maxsus karta hisobvarag'idagi, XBK egasi ishlata olmagan, abonentlik to'lovi yechib olish paytida kartaning asosiy balans hisobvarag'ida zarur summa mavjud bo'lmaganda, abonentlik to'lovi to'lash uchun, shuningdek, Karta hisobvarag'idagi salbiy qoldiqni qoplash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari summasi;

SMS-Kod - Mijozning uni Tizimlarda ro'yxatdan o'tkazishga, bank kartasini qo'shishga va hokazolarga roziligini bildirish uchun bir martalik o'zgaruvchan kod. SMS-Kod SMS-xabar ko'rinishida bo'lib, Mijoz amaliyotining turiga bog'liq ravishda, Mijozning Bank kartasi biriktirilgan mobil telefoni raqamiga yoki Mijozning Tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan mobil telefoni raqamiga yuboriladi;

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (keyingi o'rinlarda - SHTH) - O'zbekiston fuqarosining milliy pasporti, identifikatsiya kartasi (ID-karta), 16 yoshga to'lmagan fuqaroning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi, chet el fuqarosining milliy pasporti (tegishli ichki ishlar organlari tomonidan chet el fuqarosi ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi hujjat bilan birga) yoki chet el fuqarosining O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud respublikada akkreditatsiyadan o'tganligini tasdiqlovchi diplomatik pasport yoki akkreditatsiya kartochkasi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi hisoblanadi;

Shaxsiy ma'lumotlar - mijozga tegishli bo'lgan yoki uni aniqlash imkonini beradigan, elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy vositalarda qayd etilgan axborot;

Terminal - to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan elektron qurilma bo'lib, u mijozga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash, bankda naqd pul mablag'larini va amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha to'lov cheklarini olish, PIN-kodni o'zgartirish hamda bank kartasi balansi haqida ma'lumot olish imkonini beruvchi qurilma;

Tranzaksiya - mijozning o'z karta hisobvarag'i va bank kartasi orqali amalga oshiradigan amaliyoti, jumladan to'lov o'tkazish, naqd pul yechib olish va boshqa amaliyotlar;

Tranzaksiya sanasi - tranzaksiya amalga oshirilgan sana;

Xalqaro bank kartasi (keyingi o'rinlarda - XBK) – Bank tomonidan chiqazilgan chet el valyutasida erkin muomala qilishga imkon yaratuvchi, karta hisob varag'idagi mablag'lar doirasida amaliyotlarni amalga oshirish imkonini yaratuvchi "VISA", "UnionPay" va/yoki "MasterCard" xalqaro kartasi.

Xalqaro to'lov tizimi (keyingi o'rinlarda XTT) - Kartalar orqali pul o'tkazmalarini amalga oshirishni ta'minlovchi dasturiy-texnik vositalar, hujjatlar hamda tashkiliy-texnik yechimlar majmui. Tizim tomonidan Ishtirokchilar o'rtasida Karta amaliyotlari bo'yicha kliring hisob-kitoblarini tegishli valyuta konvertatsiyasi bilan (VISA, Mastercard, UnionPay va boshqalar) amalga oshirish qoidalari belgilanadi;

Xoldirlash - muvaffaqiyatli tranzaksiya natijasida Banklararo kredit bozorida (BKB) mablag'larni tranzaksiya summasiga teng miqdorda muzlatish. Xoldlash o'zaro hisob-kitob sanasigacha amalda bo'ladi;

XBKni bloklash – Mijoz tomonidan Bank kartasi yo'qolganligi (o'g'irlanganligi, yo'qotilganligi, zarar yetganligi va sh.k.) to'g'risida ariza taqdim etilganidan keyin darhol Mijozning Bank kartasini bloklab qo'yish;

O'zaro hisob-kitob sanasi - oldin amalga oshirilgan tranzaksiya bo'yicha Mijozning karta hisobvarag'idan mablag'lar yechib olingan sana;

3-D Secure - Internet orqali amaliyotlarni bajarishda Mijozning mobil telefoni raqamiga

yoki pochta SMS-xabarda Bank tomonidan amaliyot jarayonida avtomatik tarzda jo'natiladigan bir martalik yoki doimiy parolni majburiy tartibda kiritish yo'li bilan Mijozni qo'shimcha ravishda identifikatsiyalash.

Bank depozitorlarining Milliy axborotlar bazasi (keyingi o'rinlarda BDMAB) - O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan yuridik shaxslarga, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga hamda jismoniy shaxslarga birinchi marotaba bank hisobvaraqlari ochishda ularga xos raqam berish, ularning hisobvaraqlari ro'yxatini yuritish hamda mijozlar hisobvaraqlari to'g'risida ma'lumotlar olishni ta'minlovchi axborotlar bazasi bo'lib hisoblanadi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Mazkur Shartnomaning predmeti – Bank tomonidan emissiya qilingan xalqaro bank kartasi (kartalari) orqali hisobvaraqlarni ochish, xalqaro bank kartasi (kartalari)ni chiqarish, shuningdek shartnoma shartlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq karta hisobvarag'i hamda bank kartasiga xizmat ko'rsatishdan iborat.

3. Karta hisobini ochish, xalqaro bank kartasini chiqarish va undan foydalanish tartibi

3.1. Shartnoma shartlari standart shaklda belgilangan bo'lib, Mijoz tomonidan ariza topshirish chog'ida ushbu shartlarga rozilik bildirish orqali qabul qilinadi. Mijoz tomonidan arizaning topshirilishi hamda zarur hujjatlarning taqdim etilishi Mijozning Bankning www.garantbank.uz veb-sahifasida joylashtirilgan mazkur Shartnomani va Bank tariflariga qo'shilganligini anglatadi.

3.2. Bank jismoniy shaxsning bank kartasini chiqarish to'g'risidagi arizasi asosida u ushbu Shartnoma shartlariga qo'shilgan (akseptlagan) kundan boshlab navbatdagi ish kunidan kechiktirmasdan, jismoniy shaxsga karta hisobvarag'ini ochadi, bank kartasini tayyorlaydi va uni Mijozga topshiradi, bunda Mijoz Bankka o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart.

3.3. Mijoz xabardor qilinganki bank kartasidagi mablag' chet el valyutasida bo'lganda va konvertasiya qilingan holda ushbu davlatning amaldagi kursi bo'yicha amalga oshiriladi, xalqaro bank kartasidan (milliy valyuta hisobida ishlovchi) O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foydalanilganda, zarurat tug'ilsa, amaldagi xalqaro to'lov tizimlari tomonidan o'rnatilgan kurs bo'yicha mazkur mamlakat valyutasiga avtomatik ravishda konvertatsiya amalga oshiriladi.

3.4. Bank amaldagi tariflarga muvofiq har bir XBK turi uchun sug'urta depoziti miqdorini belgilaydi.

Karta hisobvarag'idagi qoldiq summasi sug'urta depozitiga teng yoki undan kam bo'lsa, u Mijoz bilan barcha o'zaro hisob-kitoblar yakunlangandan so'ng, ammo Karta hisobvarag'ini yopish to'g'risidagi ariza topshirilganidan keyin 30 (o'ttiz) kalendar kundan kechiktirmasdan Mijozga qaytariladi.

3.5. Karta hisobvarag'i, tegishli avtomatlashtirilgan jarayonlar mavjud bo'lgan taqdirda, mijoz tomonidan masofadan turib, bankka tashrif buyurmasdan ochilishiga buyurtma berishi mumkin.

3.6. Karta hisobvarag'i bo'yicha Bank tomonidan amalga oshiriladigan amaliyotlarni Mijozning o'zi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma olgan shaxs bajarishi mumkin.

3.7. Respublika tashqarisiga pul yuborish faqat bank orqali, maxsus to'lov topshiriqnomasi bilan amalga oshiriladi. Pul oluvchining rekvizitlari mijoz tomonidan taqdim

etilishi va topshiriqnomaga mijoz yoki uning ishonchnomasi bor vakili tomonidan imzolanishi shart. Mobil bank ilovasi orqali onlayn to'lovlar bunga kirmaydi.

3.8. XBK qo'llanilgan amaliyotlar haqida elektron xabarnoma olish uchun, Mijoz SMS-xabardor qilish xizmatini faollashtirishi zarur.

3.9. Mijoz karta hisobidan quyidagi maqsadlarda foydalanishi mumkin:

- valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ravishda, Mijozning boshqa hisobvaraqlaridan ham, boshqa jismoniy va/yoki yuridik shaxslarning hisobvaraqlaridan ham kelib tushadigan pul mablag'larini Mijozning hisobvarag'iga o'tkazish;
- valyutani tartibga solish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari doirasida tovarlar, xizmatlar (ishlar) uchun to'lovlarni amalga oshirishda joriy naqd pulsiz amaliyotlarni bajarish;
- tegishli turdagi omonatlar mavjud bo'lgan taqdirda, muddatli va/yoki jamg'arma depozitlarini ochish maqsadida mablag'larni o'tkazish, alohida tuziladigan shartnomalar asosida;
- muddatli/jamg'arma depozitining amal qilish muddati tugagach, alohida tuzilgan shartnomalar asosida Karta hisobvarag'iga o'tkaziladigan pul mablag'larini hisobga olish;
- karta hisobvarag'idagi pulni boshqa valyutaga aylantirish;
- hisobvarag'dan naqd pul olish va qo'shish;
- karta hisobvarag'idan pulni naqdsiz yuborish va bank hujjatlarini tayyorlash mijoz arizasi asosida va karta bilan biriktirilgan xalqaro bank karta orqali amalga oshiriladi.

3.10. Mijoz bankka tashrif buyurganda unga xizmat ko'rsatish uchun Bankning ish vaqti soat 9:00dan 17:00 gacha belgilangan. Masofaviy bank xizmati tizimlari orqali banklararo amaliyotlarni amalga oshirish tartibi Masofaviy tizimlardan foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatish qoidalari asosida tartibga solinadi.

3.11. XBK Mijoz tomonidan quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

- XBKda tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovlarni terminallar yoki internet tarmog'i orqali amalga oshirish;
- bankomatlar orqali to'lovlarni amalga oshirish;
- Bank (yoki boshqa banklar) kassalaridan yoki bankomatlar orqali naqd pul olish;
- amaldagi qonunchilik va ushbu Shartnoma doirasida boshqa harakatlarni bajarish.

3.12. Mijoz tranzaksiya amalga oshirilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida tranzaksiyaga yozma ravishda e'tiroz bildirmasa, har qanday tranzaksiya Mijoz tomonidan amalga oshirilgan hisoblanadi. XBK orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarga oid barcha nizolar "VISA", "UnionPay International" va "MasterCard" xalqaro to'lov tizimlarining operatsion qoidalariga muvofiq hal qilinadi.

3.13. XBK valyutasidan boshqa valyutada tranzaksiyalarni amalga oshirishda mablag'larni xoldirlash tranzaksiya o'tkazilgan sanadagi kurs bo'yicha amalga oshiriladi. Karta hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish o'zaro hisob-kitob sanasidagi kurs bo'yicha amalga oshiriladi. O'zaro hisob-kitob sanasining kursi xalqaro yangiliklar va moliyaviy axborot agentligining <http://www.reuters.com> saytidagi kursdan ko'p yoki kam tomonga, lekin 4% dan (to'rt foizdan) ortiq bo'lmagan miqdorga farq qilishi mumkin.

3.14. Mijozning Bank aloqa markazi xizmatlaridan foydalanishi zarurligi, axborot xavfsizligi va himoyasini ta'minlash, shuningdek xizmat ko'rsatish sifatini tegishli darajada saqlash maqsadida, Bank telefon suhbatlarini Mijozga qo'shimcha xabar bermasdan yozib olishi mumkin.

3.15. Telefon orqali suhbatlarda Karta hisobvarag'i yoki XBKni qo'llagan holda amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha ma'lumotlarni olish faqat Mijoz tomonidan telefon suhbatlari uchun to'g'ri Parol yuborilgandan so'ng mumkin bo'ladi.

3.16. Xavfli holat yuz berganda, Bank XBKni bloklash huquqini o'zida saqlab qoladi. XBKni blokdan chiqarish faqat uni avval bloklashga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

3.17. XBKni bloklash Mijozning tashabbusi bilan - Aloqa markazi xizmatidan foydalanish, Bankka tashrif buyurish yoki masofaviy bank xizmati tizimlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

3.18. XBKni bloklash tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek maxsus vakolatli organlarning ko'rsatmasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Zarurat tug'ilganda, qonunchilikda belgilangan tartibda, Mijozning Karta hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirayotgan amaliyotlarining qonuniyligini tekshirish va ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq zarur tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;

4.1.2. Mijoz bank kartasining yo'qolishi (o'g'irlanishi, yo'qotib qo'yish, ishlamay qolishi va h.k.) to'g'risida yozma ariza taqdim etganidan so'ng, bank kartasini darhol bloklash;

4.1.3. Bank tariflarini o'zgartirish, bunda Bank Mijozni Bank tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar haqida ular kuchga kirishidan 10 (o'n) bank kuni oldin xabardor qiladi. Bunday ma'lumotlar Bankda, mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

4.1.4. Mijoz rozilgisiz karta hisobidan bank quyidagilarni ushlab qolishi mumkin:

- Xalqaro kartalar va elektron to'lovlar orqali amalga oshgan summalar;
- Bank tariflariga muvofiq komissiya va xizmat haqlari;
- Faol qoldiqdan oshib ketgan va 5 ish kuni ichida to'lanmagan tranzaksiyalar;
- Tegishli asoslar mavjud bo'lganda Karta hisobvarag'iga xato o'tkazilgan mablag'lar;
- Boshqa karta hisoblaridan yoki shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqqan 5 ish kuni ichida to'lanmagan qarzlar (Qarzlar kartaning valutasidan boshqa bo'lsa, qoplashda Markaziy bank kursi qo'llaniladi, ya'ni, bank karta hisobidan o'z huquqi doirasida avtomatik ravishda to'lovlarni ushlab qolishi mumkin);

4.1.5. Pul mablag'larini kiritishni va ularni hisobdan chiqarishni to'xtatish:

- Mijozning arizasiga ko'ra;
- Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning amal qilish muddati tugaganda;
- shuningdek, ushbu Shartnoma shartlariga binoan Bank talab qilgan hujjatlar taqdim etilmagan hollarda;

4.1.6. Mijozga belgilangan tartibda hisob holati yoki Masofaviy bank xizmatlari haqida qo'shimcha masofaviy xabarnoma xizmatlarini ko'rsatish;

4.1.7. XBKni qayta chiqarish uchun ariza qabul qilinganda, Mijozdan XBKni qaytarib berishni talab qilish (XBK yo'qolganligi sababli qayta chiqarish holati bundan mustasno);

4.1.8. Mijozdan ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni so'rab olish;

4.1.9. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanib amalga oshiriladigan amaliyotlar uchun limitlarni bir tomonlama tartibda o'rnatish va o'zgartirish;

4.1.10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va ushbu Shartnomada

belgilangan hollarda XBKni bloklash;

4.1.11. Bank yangiliklari va aksiyalari haqidagi ma'lumotlarni telefon qo'ng'iroqlari, SMS xabarnomalar va/yoki elektron xabarlar orqali Mijozga yetkazib berish.

4.1.12. Bank kartasini ochish to'g'risidagi ariza olingan kundan boshlab 180 (bir yuz sakson) kalendar kun ichida mijoz tomonidan karta talab qilinmagan taqdirda, shuningdek karta hisobvarag'ida qarzdorlik va pul mablag'lari qoldig'i mavjud bo'lmaganda, bank kartasini yo'q qilish hamda ushbu kartaga biriktirilgan hisobvaraqli BDMAB doirasida yopish.

Ushbu holatda bank kartasini rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirish uchun olingan komissiyalar Mijozga qaytarilmaydi.

4.1.13. Bank kartalaridan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olish maqsadida, agar Mijoz uch yuz oltmish besh (365) kalendar kuni davomida bank kartasi orqali hech qanday amaliyot bajarmagani va hisobvaraqli ijobiy qoldiq mavjudligi holda, Bank kartani bloklaydi. Mijozga bu haqda Mobil ilovadagi push-xabarnoma yoki Bankning qaroriga ko'ra boshqa mavjud aloqa vositasi orqali ma'lum qilinadi.

4.1.14. Mijozning xavfsizligini ta'minlash maqsadida Bank quyidagi holatlarda bank kartasi orqali amaliyotlar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin:

- bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishni tasdiqlovchi holatlar mavjudligida;

- bank kartasidan foydalanish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan ishlatilganda;

- belgilangan tartibda bank kartalari, shu jumladan virtual kartalarni ochish chegarasidan oshib ketganda;

- so'nggi 12 oy davomida bank kartasi bo'yicha amaliyotlar amalga oshirilmagan bo'lsa;

- bank kartalaridan foydalanish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan boshqa holatlarda;

Mijoz bu haqda Mobil ilovadagi push-xabarnoma yoki Bankning qaroriga ko'ra boshqa mavjud aloqa vositasi orqali xabardor qilinadi.

Bank kartasi orqali amaliyotlarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish va bu haqda mijozga xabar berish tartibi to'lov tizimi qoidalariga hamda bank kartalaridan foydalanish to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

4.1.15. Bank ushbu Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

4.2. Bankning sanksiya cheklovlari doirasidagi huquqlari:

4.2.1. Bank, Mijoz yoki u amalga oshirayotgan amaliyot sanksiyalar va cheklovlar doirasiga tushsa yoxud shunday xavf mavjud bo'lsa, o'tkazilayotgan amaliyotlarni o'rganish maqsadida quyidagi harakatlardan birini yoki bir vaqtning o'zida bir nechtasini amalga oshirish huquqiga ega:

- Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Shartnoma tuzishni bir tomonlama rad etish yoki uni bekor qilish (bajarishdan voz kechish) huquqiga ega bo'lish;

- qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega bo'lib, bunda Mijoz so'rov kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni ichida bunday ma'lumotlarni taqdim etishi shart;

- amaliyot summasi bo'yicha cheklovlar belgilash;

- amaliyotni o'tkazishni cheklash (rad etish). Bunda, tegishli to'lov hujjati amaldagi qonunchilik va ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan talablarga rioya qilgan holda, Bank tarkibiy bo'linmasining sanksiyaviy kompayens bo'yicha xulosasi olingan paytdan boshlab keyingi

operatsion kundan kechiktirmasdan bajariladi.

4.2.2. Bank chet el valyutasidagi pul mablag'larini hisobvaraqlarga o'tkazish va Mijoz tomonidan valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirish bilan bog'liq amallarni bajarishda, pul mablag'larining qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

4.2.3. Bank Mijozning bank hisobvaraqlaridan naqd chet el valyutasini yechib olish va kiritish bo'yicha amaliyotlarga limitlar o'rnatish va ularga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bunda Bank kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalar haqida ularni amalga oshirishdan 10 (o'n) bank ish kuni oldin Bankda, Mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek, Bankning www.garantbank.uz rasmiy veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali Mijozni xabardor etadi.

4.2.4. Mijoz tomonidan chegaralararo pul o'tkazmalarini amalga oshirish jarayonida, Bank vakolatli organlar va/yoki vakil banklar tomonidan qo'llaniladigan salbiy choralar (amaliyotni to'xtatib qo'yish, mablag'larni bloklash, to'lovni rad etish kabilar) uchun javobgar hisoblanmaydi hamda sanksion cheklovlar oqibatida yuzaga kelgan, Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan holatlar tufayli Mijozga yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etiladi.

4.2.5. Norezident jismoniy shaxsga bank hisobvarag'ini ochish va XBK chiqarish, Bankning ichki hujjatlarida belgilangan qoida va me'yorlarni inobatga olgan holda, Bankning tarkibiy bo'linmasi tomonidan norezident mijozni sanksiyaviy muvofiqlik bo'yicha o'rganish jarayoni yakunlangandan so'ng amalga oshiriladi.

4.2.6 Bank, mijozning xatti-harakatlari, xususan, XBKdan foydalanish bo'yicha amaliyotlari XPT talablariga zid bo'lgan hollarda, shartnomani bir tomonlama bekor qilish yoki bajarishdan bosh tortish huquqiga ega.

4.2.7. Bank, Xalqaro to'lov tizimlarining asosiy qoidalariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilgan hollarda, Shartnomani bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki to'ldirish huquqiga egadir.

4.3. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

4.3.1. Ariza asosida u ushbu Shartnomaning shartlariga qo'shilgan (akseptlagan) kundan boshlab navbatdagi ish kunidan kechiktirmasdan, jismoniy shaxsga karta hisobvarag'ini ochish, bank kartasini tayyorlash va XBKni egasiga topshirish;

4.3.2. Karta hisobvarag'iga pul mablag'larini keyingi ish kunidan kechiktirmasdan o'tkazish;

4.3.3. Amaldagi qonunchilik doirasida va ushbu Shartnoma shartlari asosida Mijozning topshirig'i bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish xizmatlarini ko'rsatish;

4.3.4. XBK orqali amalga oshirilgan va PIN-kod yig'indisi yoki bir martalik o'zgaruvchan kodlar yordamida tasdiqlangan barcha Tranzaksiyalar summasini Karta hisobvarag'idan yechib olish (amaliyotlarning haqiqiyligini tasdiqlash shartlari Masofaviy bank xizmati tizimlaridan foydalanishda xizmat ko'rsatishning alohida Qoidalarida belgilangan).

4.3.5. Mijozning yozma arizasiga binoan Karta hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma berish yoki Mijoz Aloqa markaziga murojaat qilganda, telefon orqali suhbatlashish uchun to'g'ri parolni aytish sharti bilan, Karta hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar haqida ma'lumot taqdim etish;

4.3.6. Karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar sirini saqlash va bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardagina uchinchi shaxslarga taqdim etish;

4.3.7. Mijozning yozma arizasi asosida, Mijoz masofaviy bank xizmati tizimlaridan foydalanganda yoki Mijoz Aloqa markaziga telefon orqali murojaat qilganda, telefon suhbatlari uchun to‘g‘ri parolni aytgan taqdirda, Xalqaro bank kartasini bloklash;

4.3.8. Mijozning yozma talabiga ko‘ra va uning bankka tashrifi sharti bilan XBKni bloklashdan chiqarish;

4.3.9. Bank tariflaridagi barcha o‘zgarishlar haqida Mijozni xabardor qilish, bu haqda axborot stendlarida hamda Bankning rasmiy veb-saytida e‘lonlar joylashtirish orqali, o‘zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) bank ish kuni oldin ma‘lum qilish;

4.3.10. Ushbu Shartnomani bekor qilinganda XBKni qabul qilish, Karta hisobvarag‘ini yopish va Karta hisobvarag‘idagi qolgan pul mablag‘larini Mijozga qaytarish;

4.3.11. Mijozning yozma arizasiga asosan, 3 (uch) bank ish kuni ichida, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq komissiya to‘langandan so‘ng, shikastlangan yoki yo‘qolgan XBK o‘rniga yangi XBK ni qayta chiqarib berish;

4.3.12. Mijozdan Karta yo‘qolganligi, o‘g‘irlanganligi yoki noqonuniy foydalanilganligi haqida xabar olinganda Kartani zudlik bilan bloklash;

4.3.13. Bank kartalari bo‘yicha (bank kartalaridan foydalanayotgan paytda “PIN-kod”ni noto‘g‘ri terilishi oqibatida blokirovkaga tushgan holatlar bundan mustasno) amaliyotlar to‘xtatib qo‘yilganda, bank amaliyot to‘xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvara q yoki omonat egasiga uning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma‘lumotnoma) yuborish;

4.3.14. Mijozni bank tariflari bilan tanishtirish;

4.3.15. Mijozning yozma arizasiga asosan karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirma berish;

4.3.16. Tariflar va Kartadagi kamaytirilmaydigan qoldiq miqdoridagi o‘zgarishlar va qo‘shimchalar haqida mijozni xabardor qilish;

4.3.17. Bank kartasini amal qilish muddatidan avval to‘xtatish to‘g‘risida Mijozni xabardor qilish;

4.3.18. Mijoz talabiga binoan uning bank kartasidan foydalanish bilan bog‘liq tegishli hujjatlarni va axborotni taqdim etish;

4.3.19. Bank kartasini olish uchun murojaat qilgan shaxsning arizasini ko‘rib chiqish;

4.3.20. Mijozni bank kartasi yo‘qolganligi va (yoki) bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risidagi xabarnomani tunu kun yuborish imkoniyati bilan ta‘minlash;

4.3.21. Karta hisobvarag‘i yopilganda, keyingi amaliyot kunidan kechiktirilmagan holda karta hisobvarag‘ida mavjud pul mablag‘larini mijozga berish;

4.3.22. Bank kartalari orqali o‘tkazilgan amaliyotlar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri amalga oshirish;

4.3.23. Bank kartalari bo‘yicha mablag‘lar Mijozning topshirig‘isiz hisobdan chiqarilganda, bank ushbu mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Mijozga uning hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda xabarnoma (ma‘lumotnoma) yuborish;

4.3.24. Bank yoki BXOda terminal orqali to‘lovlarni amalga oshirish yoki bank kartasidagi pul mablag‘ini naqdlashtirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatganda bank kartasini taqdim etuvchiga (bank karta egasi yoki kartani ishlatish vakolati berilgan shaxs) ushbu kartaning “PIN-kod”ini mustaqil terishga imkon yaratib berish;

4.3.25. Bank Mijoz talabiga binoan uning bank kartasidan foydalanish bilan bog‘liq tegishli hujjatlarni va axborotni shartnomada belgilangan tartibda taqdim etish.

4.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

4.4.1. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalariga, ushbu Shartnoma shartlariga hamda VISA/MasterCard/China UnionPay operatsion qoidalariga muvofiq Kartadan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirish;

4.4.2. O'z hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini amaldagi qonunchilik va mazkur Shartnoma talablari doirasida erkin tasarruf etish;

4.4.3. Uchinchi shaxsga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirish orqali karta hisobvarag'idagi va XBKdagi pul mablag'larini tasarruf etish huquqini berish. Bunda Mijoz karta hisobvarag'i va XBKni tasarruf etish huquqlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi.

4.4.4. Bankdan maslahatlar olish, shuningdek, Mijozga tegishli Karta hisobvaraqlari bo'yicha xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlarni, jumladan Karta hisobvaraqlari bo'yicha ko'chirmalarni va Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan barcha amaliyotlar to'g'risida to'liq axborot olish;

4.4.5. Bank xizmatlaridan bir tomonlama voz kechish uchun Shartnomani bekor qilish va mavjud hisobvaraqlarni yopish to'g'risida belgilangan shakldagi arizani taqdim etish mumkin. Bunda Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Bankka to'lanishi lozim bo'lgan barcha vositachilik haqlarini to'liq to'lash shart hisoblanadi.

4.4.6. Bankdan Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni tegishli ravishda bajarilishini talab qilish;

4.4.7. XBK orqali O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida joylashgan bankomatlar/terminallardan naqd pul mablag'larini olish, shuningdek terminallar/infokiosklar/bankomatlar orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlarni amalga oshirish;

4.4.8. Bankka yozma ariza topshirish orqali o'z karta hisobvarag'idan ko'chirma olish yoki maxfiy so'zni aytish sharti bilan Aloqa markaziga murojaat qilganda tranzaksiyalar haqida ma'lumot olish;

4.4.9. Bank tariflari, ularning o'zgarishlari, shuningdek XBK yordamida taqdim etiladigan yangi bank xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni Bank ofislarida ham, Bankning rasmiy veb-saytida ham olish;

4.4.10. Bank tariflariga muvofiq to'lov amalga oshirilgan holda XBKni qayta chiqartirish yoki qo'shimcha karta ochish huquqiga ega bo'lish;

4.4.11. Mijozning arizasiga asosan XBKdan foydalanishni to'xtatish va keyinchalik Karta hisobvarag'ini yopish;

4.4.12. XBK yo'qolgan yoki shikastlangan holda, uni qayta chiqarish uchun Bankka ariza bilan murojaat qilish;

4.4.13. XBKni bloklash va/yoki blokdan chiqarish uchun Bankka yozma ravishda murojaat qilish, XBKni bloklash uchun Aloqa markaziga qo'ng'iroq qilib maxfiy kodni aytish orqali, XBKni MBX kanallari orqali bloklash/blokdan chiqarish.

4.4.14. Telefon suhbatlari uchun maxfiy so'z aytilgandan so'ng, telefon orqali Karta hisobi yoki XBK bilan amalga oshirilgan amaliyotlar haqida ma'lumot olish.

4.5. Mijoz quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

4.5.1. XBKni olayotganda shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etish;

4.5.2. PIN-kod to'plami yoki bir martalik o'zgaruvchan kodlar yordamida tasdiqlangan Xalqaro bank kartalaridan foydalanib amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo'yicha hisob-kitob

qilish (amaliyotlarining haqiqiyligini tasdiqlash shartlari Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish tizimining alohida qoidalarida nazarda tutilgan).

4.5.3. Bankning talabiga ko'ra mijozni tegishli tarzda tekshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan amalga oshirilayotgan amaliyot bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni Bank belgilagan muddatlarda taqdim etish;

4.5.4. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq ravishda Bank xizmat haqqini o'z vaqtida to'lash;

4.5.5. XBKning xavfsizligini ta'minlash hamda XBKning PIN-kodi, telefon so'zlashuvlari va To'lov tizimlaridan foydalanish uchun parollarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik;

4.5.6. Passport va boshqa ma'lumotlar (familiya, ism, otasining ismi, yashash manzili, aloqa telefon raqami va hokazo) o'zgargan taqdirda, o'zgarishlar yuz bergan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida Bankni bu o'zgarishlar haqida tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda yozma ravishda xabardor etish;

4.5.7. XBK yo'qolganda yoki o'g'irlanganda, darhol Aloqa markaziga murojaat qilish kerak, bunda maxfiy so'z aytish yoki Bankni bu haqda yozma ravishda xabardor qilish lozim;

4.5.8. XBK yo'qolishi yoki shikastlanishi sababli qayta chiqarilganda, Bankning amaldagi tariflariga muvofiq Bankka vositachilik to'lovini to'lash zarur;

4.5.9. XBKdan faqat Karta hisobvarag'idagi mavjud qoldiq doirasida foydalanishi va u bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Karta hisobvarag'ida salbiy qoldiq paydo bo'lgan taqdirda, qarzdorlik yuzaga kelgan kundan boshlab bir oy ichida qarzning to'liq summasini to'lashi shart. Bunda Bank tomonidan taqdim etiladigan va alohida shartnoma bilan tartibga solinadigan overdraft xizmati bundan mustasno;

4.5.10. Karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirishda, amaliyotni bajarish va Bank xizmatlari uchun to'lovni undirish uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi pul mablag'larini o'z Karta hisobvarag'ida ta'minlashi lozim;

4.5.11. Karta hisobvarag'i orqali tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq amaliyotlarni amalga oshirmasligi kerak;

4.5.12. O'z karta hisobvarag'ining holati haqida ma'lumot olgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida boshqa shaxslarning pul mablag'lari o'z karta hisobvarag'iga tushganligi to'g'risida Bankka xabar berish va o'z karta hisobvarag'ining holati haqida ma'lumot olgan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida karta hisobvarag'iga xato o'tkazilgan pul mablag'larini Bankka qaytarish;

4.5.13. Karta hisobvarag'idan noto'g'ri hisobdan chiqarilgan mablag'larni qaytarish uchun, Karta hisobvarag'i holati haqida ma'lumot olingan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Bankka xabar berish;

4.5.14. taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish;

4.5.15. Bankning so'roviga binoan 3 (uch) bank kuni ichida ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;

4.5.16. Bank va boshqa to'lov tashkilotlarining Internet tarmog'idagi rasmiy sahifalariga ulanish, kirish va xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lov tizimlari shartlari bilan mustaqil ravishda tanishish;

4.5.17. o'zining shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida qolganda yoki xavf ostida qolishidan shubhalanilganda Bankni darhol xabardor qilish, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan Internet orqali uzatilgan ma'lumotlarning xavf ostida qolishi ehtimoli

bilan bog'liq xatarlarni o'z zimmasiga olish;

4.5.18. Mijoz bank kartasidan, uning rekvizitlaridan, autentifikatsiya vositalaridan (shu jumladan tasdiqlash kodlaridan), shuningdek masofaviy bank xizmatlariga kirishdan faqat shaxsan o'zi foydalanish majburiyatini oladi va ularni to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga bermasligi shart, qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida harakatlar amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno.

4.5.19. Bank kartasidan "Qo'shimcha-karta" sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Bank kartasidan Drop-karta sifatida foydalanish deganda, Mijozning bank kartasi va/yoki karta hisobi orqali uchinchi shaxslar manfaatlarida amaliyotlarni amalga oshirish yoki uchinchi shaxslarga bank kartasiga, karta hisobiga yoki masofaviy bank xizmatlariga kirish imkonini berish, jumladan mukofot evaziga yoki boshqa shaxslarning iltimosiga ko'ra amalga oshirilgan harakatlar tushuniladi.

Qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida amalga oshirilgan holatlar bundan mustasno.

4.6. Tomonlar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga, Bankda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish siyosati talablariga hamda ushbu Ommaviy ofertaga qo'yiladigan korrupsiyaga qarshi talablarga qat'iy amal qilish lozim.

5. Bank xizmatlari uchun komission haq

5.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlar narxi Bank tariflari asosida belgilanadi.

5.2. Mijoz amaliyotlarni amalga oshirish bo'yicha Bank xizmatlariga to'lovni naqd pul shaklida ham, naqdsiz shaklda ham banklararo kliring orqali yoki Bankdagi boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari hisobidan amalga oshirishi mumkin.

5.3. Bank o'z tariflariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bank tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar haqida ular kuchga kirishidan 10 (o'n) bank ish kuni oldin Mijozni tegishli ma'lumotlarni Bankda, mijoz- larga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali xabardor qiladi.

Buning uchun Bank tegishli ma'lumotlarni Bank binolarida, mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiradi. Agar Bank tariflari komission to'lovlar miqdorini kamaytirish (Mijoz uchun qulay shart-sharoitlar yaratish) yo'nalishida o'zgartirilsa, Bank ushbu o'zgartirishlarni Bank tariflariga kiritilgan o'zgarishlar kuchga kirgan kunning ertasidan kechiktirmay bir tomonlama tartibda qo'llashga haqli bo'ladi.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlardan biri o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan yoki tegishli darajada bajarmagan taqdirda, ushbu Tomon boshqa Tomonga yetkazilgan zararni qoplaydi, shuningdek amaldagi qonunchilik va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

6.2. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

- uchinchi tomon XBKga xizmat ko'rsatishni rad etganda (agar XBK Bank bilishi va/yoki nazorati doirasidan tashqari vaziyatlar tufayli biron-bir alohida terminal, bankomat yoki boshqa qurilma tomoni- dan qabul qilinmasa);

- XBK orqali sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifati;

- XBKga xizmat ko'rsatish turlarini, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amaliyotlar ro'yxatini, muddatlarini va texnologik shartlarini vaqtinchalik

qisqartirish/yomonlashtirish/o'zgartirish;

- Mijozning manfaatlariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, uchinchi tomon tomonidan XBK bilan bog'liq amaliyotlar uchun belgilangan limitlar, cheklovlar va qo'shimcha to'lovlar;

- Yo'qolgan yoki o'g'irlangan XBK yoxud CVV-2 ni bloklash haqida Bankni o'z vaqtida yozma ravishda xabardor qilmaslik oqibatlari, shu jumladan, Mijozdan XBK o'g'irlangani va/yoki yo'qolgani to'g'risida yozma xabar olinguncha yoki Mijoz Aloqa markaziga murojaat qilganidan so'ng XBK bloklanguncha uchinchi shaxslar tomonidan XBK orqali amalga oshirilgan amaliyotlar uchun javobgarlik;

- Mijoz tomonidan XBK PIN-kodi, telefon suhbatlari maxfiy so'zi va to'lov tizimlariga kirish parollarini uchinchi shaxslarga oshkor qilishi yoki yo'qotishi oqibatida, uchinchi shaxslar tomonidan XBK orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar;

- PIN-kodning ketma-ket uch marta noto'g'ri kiritilishi natijasida bank kartasining bloklanishi;

- O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risi- dagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amaliyotlarni to'xtatish va amaliyotlarda foydalaniladigan mablag'larni muzlatish;

- Mijoz tomonidan bank amaliyotlarini amalga oshirish va mijozni tegishli tarzda tekshirish uchun Bank talab qilgan hujjatlar va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmasligi yoki umuman taqdim etmasligi yoxud taqdim etilgan hujjatlarda yo'l qo'yilgan noaniqliklar va xatolar;

- Bankka bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli va/yoki fors-major holatlar yuz berganda, Bankning o'z majburiyatlarini bajara olmasligi;

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda, Karta hisobvarag'ini ochishni va XBKni chiqarishni rad etish, shuningdek Karta hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirishdan bosh tortish;

- Mijozning tashqi to'lov tashkilotlarining to'lov tizimlaridan foydalanishda o'z vaqtida bajarmasligi yoki noto'g'ri harakatlari uchun; Internet tarmog'i orqali Xalqaro bank kartalari bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun;

- PIN-kodni kiritish orqali amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar uchun;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Karta hisobvarag'iga xato o'tkazilgan pul mablag'lari haqida xabar bermaslik;

- Mijoz va uchinchi shaxslar o'rtasida nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda, agar bunday vaziyatlar Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, shuningdek Bank nazorati doirasidan tashqarida bo'lgan barcha hollarda;

- Nizoli tranzaksiya bo'yicha Mijoz ko'rgan zarar uchun, agar bunday nizo "VISA", "UnionPay International" va "MasterCard" xalqaro to'lov tizimlarining Operatsion qoidalariga muvofiq Mijoz foydasiga hal etilmagan bo'lsa;

- Agar Mijoz ushbu Shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli buzishga ko'maklashgan yoki buzgan bo'lsa.

- O'z majburiyatlarini va ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini buzganligi.

6.3. Mijoz Kartadan foydalanilgan holda amalga oshirilgan barcha amaliyotlar uchun uni Bankdan olgan paytdan boshlab javobgar hisoblanadi. Mijoz O'zbekiston Respublikasining valyuta qonunchiligi bilan tanish ekanligini tasdiqlaydi va Kartadan foydalanish jarayonida ushbu qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash majburiyatini oladi. Mijoz O'zbekiston

Respublikasining amaldagi valyuta qonunchiligini buzganlik uchun javobgar hisoblanadi.

7. Bank kartasini va karta hisobvaraqlarini yopish tartibi

7.1. Karta egalari Bankka shaxsan tashrif buyurish yo'li bilan Karta va karta hisobvarag'ini yopish uchun ariza topshirish huquqi ega.

7.2. Kartaning amal qilish muddati tugagan yoki tugamaganidan qat'i nazar, mijoz ushbu bo'limda belgilangan talablar asosida karta va karta hisobvarag'ini yopish uchun ariza topshirishi mumkin.

7.3. Karta va unga bog'langan karta hisobvarag'i faqat barcha quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgandagina yopiladi:

- Avtomatlashtirilgan bank tizimidagi karta hisobi qoldig'i nolga teng bo'lishi;
- Protsessing markazidagi hisob qoldig'i nolga teng bo'lishi;
- Karta bo'yicha "kechiktirilgan" holatdagi buxgalteriya o'tkazmalari bo'lmashligi kerak, ya'ni tasdiqlanmagan yoki hali yakunlanmagan amaliyotlar mavjud bo'lmashligi shart;
- Protsessing markazida muzlatib qo'yilgan mablag'lar bo'lmashligi kerak (ya'ni "hold" turidagi amaliyotlar yo'q bo'lishi lozim);
- Hisobvaraqlar xatlash ostida bo'lmashligi kerak (unga "xatlangan" maqomi berilmagan bo'lishi shart).

7.4. Karta egasi Bankning eng yaqin BXOga tashrif buyurib ariza orqali murojaat qilishi mumkin.

7.5. Ushbu Nizomning 7.3-bandida ko'rsatilgan shartlar muvaffaqiyatli tekshirib bo'lingandan so'ng Ariza Bank bo'limlari yoki ofislari orqali topshirilgan bo'lsa, u Karta va karta hisobvarag'ini yopish uchun vakolatli bo'limga yuboriladi.

7.6. Talabnomani ko'rib chiqish natijalari haqida Mijoz Bank mobil ilovasi orqali SMS-xabar yoki Push-bildirishnoma vositasida xabardor qilinadi.

7.7. Ushbu Nizomning 7.3-bandida ko'rsatilgan barcha shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda, Karta va Karta hisobvarag'ini yopish muddati ariza tasdiqlangan kundan boshlab 1 (bir) ish kunidan 3 (uch) ish kunigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

7.8 7.3-bandda ko'rsatilgan nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Karta va Karta hisobvarag'ini yopish muddati 30 (o'ttiz) ish kunigacha cho'zilishi mumkin. Muddatning uzayishi quyidagi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

- ilgari karta orqali amaliyotlar o'tkazilgan savdo shoxobchalarining inkassatsiyani kechiktirishi;
- O'zbekiston Respublikasi, AQSH va Xitoyda belgilangan dam olish yoki bayram kunlarida ariza topshirilgan taqdirda, ham ichki, ham xalqaro to'lov tizimlarida kliring amaliyotlarining o'tkazilishi kechikishi mumkin.

8. Fors-Major holatlar

8.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari va (yoki) qisman bajarmaganliklari uchun, agar bu shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan va Tomonlar mavjud choralar bilan ularning oldini olishning imkoni bo'lmagan yengib bo'lmash kuch (fors-major) oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Yengib bo'lmash kuch oqibati deganda quyidagilar tushuniladi: zilzila, suv toshqini, yong'in, boshqa tabiiy ofatlar, epidemiyalar, davlat organlarining shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan qarorlari va harbiy harakatlar.

8.3. Ko'rsatilgan oqibatlar sodir bo'lgan vaqtda, yengib bo'lmash kuch ta'siriga ishora qiluvchi Tomon, bu haqda ikkinchi Tomonni darhol yozma ravishda xabardor etishi lozim.

8.4. Agar ko'rsatilgan oqibatlar uch oydan ortiq davom etsa, Tomonlar shartnoma majburiyatlarini bajarishni ikkinchi Tomonni ogohlantirgan holda bir tomonlama to'xtatishga haqlidir. Bunday holda shartnoma bajarilmagan qismi bo'yicha bekor qilinadi va Tomonlar shartnomaning bajarilgan hamda bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

9. Nizolarni hal qilish

9.1. Ushbu shartnomaning shartlari va ularning bajarilishi yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, nizo tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra muzokara yo'li bilan hal etiladi.

9.2. Agar muzokaralar natijasida Tomonlar kelishuvga erisha olmasalar, nizo Bank joylashgan joydagi yoki BXO joylashgan hududdagi tegishli sudda korib chiqiladi.

10. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish tartibi

10.1. Ushbu Shartnoma Mijoz tomonidan aksept qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va quyidagi holatardan biri yuzaga kelgunga qadar amal qiladi:

Mijoz Bankka karta hisobraqamini yopish va Kartani bekor qilish uchun murojaat qilguniga qadar (qarzdorlik so'ndirilmagan holatlar bundan mustasno);

XBKning muddati tugaguniga qadar.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq bank karta hisobvarag'ini yopgunga qadar Karta xizmatlari bekor qilingandan so'ng Shartnoma shartlari to'liq amal qilingunga qadar tegishli qismda amal qiladi.

Mijozning kartasidagi sug'urta depoziti mijoz ariza began Kundan boshlab 30 (o'ttiz) Kundan keyin beriladi.

10.3. Ushbu shartnoma jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, so'nggi 12 oy davomida karta orqali hech qanday amaliyotlar amalga oshirilmagan, qarzdorlik va karta hisobvarag'ida mablag' qolmagan hollarda bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin.

10.4. Bank talabiga ko'ra, ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

10.5. Shartnomaning bekor qilinishi karta hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

11. Korrupsiyaga qarshi shartlar

11.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho buyumlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

11.2. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

11.3. Agar tomonlardan biriga boshqa tomon ushbu bo'limda ko'rsatilgan shartni buzganligi ma'lum bo'lsa, u bu haqda darhol ikkinchi tomonga xabar berishi va tegishli choralarni ko'rishni hamda zarur harakatlarni amalga oshirishni talab qilishi shart.

11.4. Tomonning talabiga binoan tegishli choralar ko‘rilmasa yoki tekshiruv natijalari haqida xabar berilmasa, ushbu tomon shartnomani bir tomonlama tartibda to‘xtatib turish yoki bekor qilish, shuningdek yetkazilgan zararining to‘liq qoplanishi talab qilish huquqiga ega.

11.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnoma bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

12. Boshqa shartlar

12.1. Bank ushbu shartnomaning shartlariga bir tomonlama o‘zgartirish kiritish huquqiga ega bo‘lib, buni shartnomaning yangi tahriri va bank tariflarini o‘zining veb-saytida joylashtirish orqali amalga oshiradi. Kiritilgan o‘zgartirishlar bankning veb-saytiga joylashtirilgan paytdan boshlab bank va mijoz uchun majburiy kuchga ega bo‘ladi.

12.2. Ushbu shartnomada ko‘zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni qoidalariga muvofiq, mijoz bankka o‘zining shaxsiy ma’lumotlariga tegishli har qanday axborotni saqlash va qayta ishlash, jumladan avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash huquqini beradi. Bu huquq mijozning shaxsiy ma’lumotlarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo‘q qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mijoz ushbu shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatishga rozilik beradi.

12.3. Ushbu shartnomaning shartlari va ularning bajarilishi yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, nizo tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra hal etiladi. Tomonlar kelishuvga erisha olmagan nizolar va kelishmovchiliklar Bank BXOsi joylashgan hududdagi vakolatli sudga ko‘rib chiqiladi.

12.4. Agar bank tomonidan mijozning bank kartalari bo‘yicha amaliyotlar to‘xtatilsa (PIN-kodni noto‘g‘ri kiritish natijasida karta bloklangan holatlar bundan mustasno), bank amaliyotlar to‘xtatilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozga uning hisobvaraqlari bo‘yicha amaliyotlarni to‘xtatish sababi haqida xabarnoma yuboradi.

12.5. Bank tomonidan kredit yoki mikroqarz bo‘yicha qarzдорlikni qoplash maqsadida mijozning roziligsiz uning bank kartalaridan pul mablag‘lari yechib olinsa, bank mazkur yechib olish amalga oshirilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozga yechib olingan summa, uning sababi va mablag‘larni oluvchining nomi haqida xabarnoma yuborishi shart. Xabarnoma mijozga shaxsan, pochta yoki elektron aloqa vositalari orqali yoxud boshqa aloqa kanallari orqali yetkaziladi. Mijoz xabarnomani qabul qilish usulini bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun ariza topshirish jarayonida o‘zi mustaqil tanlashi lozim.

12. Rekvizitlar

Bank nomi: “GarantBank” AJ

STIR: 201053901

MFO: 00439

IFUT: 64190

Manzil: 100060, Toshkent shaxri, Said Baraka, 78

Telefon: +998 71 202 15 13

Qisqa raqam: 1326